


2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI



2011-YIL 31-AVGUSTDAN CHIQA
BOSHLAGAN

E-MAIL: navoiy-ziyosi@umail.uz

https://t.me/navoiy_ziyosi

2024-yil 12-fevral
№ 5-6 (619-620)

NAVOIY ZIYOSI

БУЮК НАВОИЙГА ЭЎТИРОМ



Буюк мутафаккир шоир Алишер Навоий таваллудининг 583 йиллиги муносабати билан вилоят марказидаги маданият ва истироҳат боғида маърифий тадбир ташкил этилди.

Дастлаб вилоят ҳокими Нормат Турсунов бошчилигидаги сектор раҳбарлари ва масъуллар, ижодкор ва зиёлилар, олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчилари ва талабалари, кенг жамоатчилик вакиллари томонидан ҳазрат ҳайкали пойига гул қўйилиб, ҳурмат бажо келтирилди.

Шундан сўнг олимлар, таниқли ижодкорлар улуғ бобокалонимизнинг бой маънавий мероси, умуминсоний ғоялари ҳақида маърузалар қилдилар.

Буюк мутафаккир таваллудининг 583 йиллигига бағишланган тадбирлар вилоят бўйлаб давом этмоқда.

ТАЛАБАЛАР ҲОКИМДАН МИННАТДОР БЎЛИШДИ



Жорий йилнинг 30 январь куни Навоий шаҳри ҳокими Дилмурод Эргашев Навоий давлат педагогика институтига ташриф буюриб, профессор-ўқитувчилар ва талабалар билан мулоқот ўтказган эди.

Учрашувда талабалар айрим турдаги адабиётлар ва бадий китобларнинг кутубхоналарда топишнинг, эркин мутолаа қилишнинг имкони бўлмаётганини айтиб, ҳокимдан институт кутубхонасига китоблар олиб беришини сўраган эди.

Раҳбар бу ташаббусни қўллаб-қувватлаб, тез орада китоблар жамланмасы етказилишини ваъда қилганди. Бугун институт талабалари ана шу қувончли воқеанинг шоҳиди бўлишди. Ҳокимнинг ўзи 300 га яқин китобдан иборат жамланмани талабалар ихтиёрига топширди.

Музаффар ЎСАРОВ,
шаҳар ҳокими ёрдамчиси.

SHAHAR RAHBARINING NAVBATDAGI SAYYOR QABULI



Navoiy shahar hokimi, 1-sektor rahbari Dilmurod Ergashev, shahar sektor rahbarlari, hokim o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Navoiy shahridagi Xalq qabulxonasi mudiri Y. Eshmurodov, mahalla faollari, tegishli tashkilot mutasaddilari hamda shahrimizning turli hududlaridan kelgan fuqarolar ishtirokida "Lochin" mahallasidagi 2-sonli umumta'lim maktabida navbatdagi sayyor qabul o'tkazildi.

Qabulda fuqarolar tomonidan bildirilgan bandlik, sog'liqni saqlash, elektr energiyasi, gaz, kontrakt to'lovi, moddiy yordam, bolalar nafaqasi, uy-joy, yotoqxona va boshqa 100 ga yaqin masalalar yuzasidan murojaatlar birma-bir muhokama qilindi.

Bildirilgan muammo va takliflarning aksariyati joyida ijobiy hal etilgan holda, ayrim murojaatlar bo'yicha qonunchilik talablari doirasida huquqiy tushuntirishlar berildi.

Navoiy shahar hokimligi Axborot xizmati

TAYINLOV



Navoiy shahar hokimining o'rinbosari — Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i vazifasini bajaruvchi lavozimiga Nasiba Dehqonovna Raximova tayinlandi.

N. Raximova 1984-yilda Navoiy viloyati Nurota tumanida tug'ilgan. Ma'lumoti oliy. 2005-yilda Navoiy davlat pedagogika institutini tamomlagan.

N. Raximova mazkur lavozimga tayinlangunga qadar Navoiy viloyati oila va xotin-qizlar boshqarmasida sho'ba mudiri lavozimida faoliyat olib borgan.

Navoiy viloyati Oila va xotin-qizlar qo'mitasi matbuot xizmati.

МУЛОҚОТЛАР КОРХОНА ТАРАҚҚИЁТИГА ХИЗМАТ ҚИЛМОҚДА

Бугун кимё саноатида импорт ўрнини босадиган маҳсулотлар тайёрлаш муҳим аҳамиятга эга. Жаҳон бозорида рақобатбардош, харидоргир маҳсулотлар ишлаб чиқариш учун эса, замонавий қувватларни барпо этиш, сўнгги техника ҳамда технологияларни қўллаш зарур. Шу тўғрисида нафақат иқтисодий тараққиётга эришиш, балки янги иш ўринларини ҳам яратиш мумкин.

Бугунги кунда "Навоийазот" АЖда айнан шу мақсад йўлида тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Жамият бошқаруви раисининг корхонадаги ишлаб чиқариш ва цехларда фаолият юритаётган ходимлар билан ўтказиётган учрашувида аввало соҳа вакилларининг мурожаати тингланмоқда.

Ташкил этилаётган бу каби мулоқотларда ходимлардан келиб тушган 30 га яқин мурожаатлар жойида ҳал этилди, кимёгарларга ҳуқуқий тушунтиришлар берилди. Уларнинг қонун билан ҳимоя қилинадиган эркинликлари кафолатланиши қайд этилди.

Жамият раҳбари корхонада ишлаб чиқариш ҳажмининг ошириш, янги маҳсулотларни тайёрлаш, мавжуд ресурслардан оқилона ва самарали фойдаланишга оид таклифлар ҳамда қўллаб-қувватланишни алоҳида таъкидламоқда. Шунингдек, мутахассисларнинг жамият ривожига хизмат қиладиган рационализаторлик таклифлари, ташаббус ва ишланмалари молиялаштирилиши, ходимлар эса рағбатлантирилиши қайд этилди.

Ишлаб чиқариш қувватларининг белгиланган

режани бажаришида айрим цехлар фаолиятидаги камчиликларни ҳам бартараф этиш лозим. Хусусан, иқтисодий тежамкорликка эришиш, электр энергияси, сувдан оқилона ва самарали фойдаланиш бўйича ишларни йўлга қўйиш долзарб вазифа. Учрашувларда бу йўналишлардаги аҳвол ҳам таҳлил этилмоқда.

Сайёр учрашувларда ҳар бир мутасаддининг ўз фаолиятини танқидий таҳлил қилиши, иш самарадорлигига салбий таъсир этаётган омилларни ўз вақтида бартараф этиши зарурлиги бўйича кўрсатмалар бериляпти. Зеро, масъулият ва жавобгарлик ҳиссини англаб фаолият юритиш ишлаб чиқариш ҳамда цехлар раҳбарларининг уларга билдирилган ишончга қай даражада муносиб эканлигини кўрсатади.

Жамият раҳбарининг сайёр қабуллари катта



жамоанинг ҳар бир аъзосини тинглаш, қўллаб-қувватлаш, амалий ёрдам кўрсатишга хизмат қиладигани билан диққатга сазовор. Бу эса юртимизда инсон қадрига қаратилган ислохотларнинг "Навоийазот" АЖдаги ифодасидир.

Гулчеҳра РАЖАБОВА,
"Навоийазот" АЖ матбуот
Хизмати раҳбари.

ЖУРНАЛИСТЛАР ТИББИЁТДАГИ ИСЛОҲОТЛАР БИЛАН ТАНИШДИ

Кармана тумани ҳокимлиги ташаббуси билан Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси Навоий вилоят бўлими, вилоят Ахборот ва оммавий коммуникациялар бошқармаси ҳамда туман тиббиёт бирлашмаси ҳамкорлигида журналист ва блогерлар учун матбуот анжумани ташкил этилди.

Анжуманда туман тиббиёт бирлашмаси бошлиғи Исомиддин Надилов 2023 йилда тиббиёт бирлашмасида амалга оширилган ишлар ва келгуси режалар тўғрисида маълумот берди.

— Тиббиёт бирлашмамизда меҳнат қиладиган 211 нафардан зиёд шифокор, 1146 нафар ўрта тиббиёт ҳамшираси аҳолининг репродуктив саломатлигини мустаҳкамлаш ва аҳоли ўртасида соғлом турмуш тарзини тарғиб этиш мақсадида муайян ишларни амалга оширмоқда, — деди И.Надилов. — Кўп тармоқли марказий поликлиника, оилавий поликлиника ҳамда шифокорлик пунктларида замонавий тиббиёт ускуналари билан жиҳозланган шифокор олди хоналари ташкил этилиб, фаолият кўрсатмоқда. Япония билан ҳамкорликда "Жайка" лойиҳаси доирасида соғлом овқатланиш орқали соғлом турмуш тарзи тамойилини тадбиқ этишга қаратилган мақсадли тадбирлар кенг тарғиб этилмоқда.

Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, ўтган йилда мақсадли очик бюджетга киритилган иккита лойиҳамиз орқали қиймати 86 миллион сўмлик кўп функцияли энг замонавий жарроҳлик жамланмаларини ютиб олдик. Шунингдек, паталогоанатомия бўлимида капитал таъмирлаш ишлари олиб борилиб, замонавий тиббиёт ускуналари билан жиҳозлаш ва бўлимининг малакали кадрлар билан таъминлаш амалга оширилмоқда.

Матбуот анжумани доирасида кадрлар масаласи, тизимда коррупция ҳолатларининг олдини олиш борасида белгиланган чора-тадбирлар юзасидан журналист ва блогерларнинг саволларига соҳа масъуллари томонидан батафсил жавоб берилди.

Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси
Навоий вилояти бўлими.

FARMASEVTIKA SOHASI TARTIBGA SOLINISHI KERAK

Navoiy shahar hokimligida Farmasevtika sohasini tartibga solish, aholini sifatli va xavfsiz dori vositalari bilan ta'minlash masalalariga bag'ishlangan uchrashuv tashkil etildi. Tadbirga shahar hokimi D.Ergashev rahbarlik qilib, Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi viloyat hududiy rahbari, shahar tibbiyot muassasasi rahbari hamda Navoiy shahrida tadbirkorlik faoliyatini yuritayotgan dori-xonalar rahbarlari ishtirok etishdi.

Yig'ilganlarga O'zbekiston Prezidentining "Farmasevtika sohasini tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni mazmun-mohiyati, sohaga kiritilayotgan o'zgarishlar, e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar xususida batafsil axborot berildi. Ma'lumotlarga ko'ra bugun Navoiy shahrida 119 ta tadbirkorlik subyektlari tomonidan qariib 300 ga yaqin dori-xonalar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Albatta bugungi rivojlanib borayotgan tibbiyot tizimida barcha kasalliklarni barvaqt aniqlash,

ularning oldini olish va eng muhimi, to'g'ri tashxis qo'yish qanchalik muhim, — dedi shahar hokimi yig'ilganlarga yuzlanib. — Gap inson taqdiri haqida bormoqda. Shunday ekan, birinchi masala shaxsiy manfaat emas, balki inson taqdiri va shaxsiy javobgarlik bo'lishi kerak.

Uchrashuvda, shuningdek, dori vositalarining retseptsiz sotilishiga chek qo'yish, sohani raqamlashtirish yo'nalishlariga to'xtalib o'tildi.

Navoiy shahar hokimligi
matbuot xizmati.

РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯСИ

Навоий давлат педагогика институтида, 11 февраль — Илм-фан соҳасидаги аёллар ва қизлар халқаро кунига бағишланган, "Жамиятда илм-фан, технологиялар ва инновацияларнинг барқарор ривожланишида хотин-қизларнинг ўрни" мавзусидаги анъанавий республика илмий-амалий анжумани бўлиб ўтди. Уни хотин-қизлар масалалари бўйича ректор маслаҳатчиси Н.Турсунова олиб борди. Анжуманни қисқача кириш сўзи билан илмий ва инновациялар бўйича проректор Т.Ўтапов очиб берди.

Тадбирда Навоий вилоят ҳокими ўринбосари, Оила ва хотин-қизлар бошқармаси бошлиғи М.Мамадиярова ҳамда олий ўқув юрти олималари ва талаба қизларининг маърузалари тингланди. Уларда хотин-қизлар учун яратилган имкониятлар, эришилаётган илмий ютуқлар, галдаги юксак марралар хусусида сўз юритилди.

Муҳаббат ЙЎЛДОШЕВА,
доцент.

ТААЖУБЛАНАРЛИ ҲОЛАТДАН БОШҚА НАРСА ЭМАС!

Олий Мажлис Қонунчилик палатаси депутатларининг антиқа "ижод маҳсули" — ИИО ходимларини тасвирга олиб, тарқатишни чеклашга оид қонун лойиҳаси Сенатда кўриб чиқиладиганлиги ҳақида турли фикрлар билдирилмоқда. Ҳуқуқ-тартибот органлари ходимларини сурат ёки видеога олиб, тармоқларда тарқатишга жавобгарлик белгиланишига на жамиятнинг, на қонунчиликнинг эҳтиёжи йўқ.

Янги қонуннинг бу нормаси очиклик сиёсати, адолатлилик принципига зид. У одамларни қўрқув остида ушлаб туриш мақсадида қабул қилинмоқда, бу давлат ходими ва халқ ўртасида катта жарлик пайдо бўлишига олиб келади. Шу сабабли бундай қонун умуман қабул қилинмаслиги лозим. Қонунчилик палатасидагилар бошларини ишлатиши, жамият ривожига жараёнларига ўта объектив нуқтаи назардан қараши талаб қилинади. Уларга савол: "Ким билан ким ўртасида ихтилофлар келтириб чиқармоқчисиз? Қонунчилик ва ҳуқуқ-тартибот соҳасининг профессионал ходимлари шу оддий ҳақиқатни англаб етмайдими? Таажжубдаман!

Санокул ОРОЛ,
журналист.

ЖАМОА КЕЛИШУВИ МУҲОКАМАСИ

2022 йил 10 декабрда "Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси, Ўзбекистон касаба уюшмалари Федерацияси ва Ўзбекистон иш берувчилар конфедерацияси ўртасида ижтимоий-иқтисодий масалалар бўйича 2023-2025 йиллар учун Бош жамоа келишуви" тузилган бўлиб, шунга асосан, республика, вилоят ва туман-шаҳарларда турли соҳаларда жамоа келишувлари йўлга қўйилган. Жумладан, Ўзбекистон таълим ва фан ходимлари касаба уюшмаси Навоий шаҳар бўлинмаси кенгаши ҳамда Навоий шаҳар мактабгача ва мактаб таълими бўлими ўртасида 2023-2025 йиллар учун Жамоа келишуви имзоланган.

Навоий шаҳар "Баркамол авлод" болалар мактабининг фаоллар залида ушбу келишувнинг 2023 йилги ижроси бўйича йиғилиш ўтказилди. Унда масъул ташкилотчи А. Бобомуродова, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик бош бошқармаси давлат меҳнат техник инспектори Ж. Адизов, Навоий шаҳар юридик хизмат кўрсатиш маркази бош юрисконсульти П. Ўроқов, умумтаълим мактаблари ва мактабгача таълим ташкилотларининг директорлари, шаҳар кенгаши аъзолари, барча бошланғич ташкилот касаба уюшма кўмити раислари иштирок этди. Йиғилиш кун тартиби бўйича, 2023-2025 йилларга мўлжалланган жамоа келишувининг 2023 йилдаги ижроси юзасидан мактабгача ва мактаб таълими бўлими ва Таълим ва фан ходимлари касаба уюшмаси Навоий шаҳар бўлинмаси кенгашининг ҳисоботлари, Жамоа келишувининг 2023 йилдаги ижроси юзасидан далолатнома-маълумотномани тасдиқлаш, таълим муассасаларида меҳнат муҳофазаси ва жамоат хавфсизлиги ҳамда Жамоа келишувига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида масалалар муҳокама қилинди.

Йиғилишда Ж.Адизов сўзга чиқиб, иштирокчиларга Ўзбекистон Меҳнат кодекси, "Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида", "Меҳнатни муҳофаза қилиш тўғрисида", "Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида"ги қонунлар тўғрисида тўхталиб ўтар экан, ташкилотда ходимларнинг меҳнат муҳофазасига алоҳида эътибор қаратилишини таъкидлаб ўтди. Шунингдек, П. Уроқов таълим муассасаларида ишчи-ходимларнинг ижтимоий-иқтисодий манфаатларини ифодалаш ҳамда ҳимоя қилиш бўйича иш берувчиларга тавсиялари ҳамда



ишчи-ходимларга таътилар берилиши тартиби тўғрисида тушунчалар берди. Жумладан, янги таҳриридаги меҳнат кодекси мумофиқ, йиллик меҳнат таътилининг энг кам давомийлиги 21 календарь кунни ташкил этиши, бундан ташқари, жамоа шартномаси ва келишувлари, шунингдек, ички ҳужжатлар ва меҳнат шартномаси билан кўпайтирилган мuddатлар белгиланиши мумкин эканлиги, меҳнат шартлари ноқулай ишларда банд бўлган, ноқулай табиий-иқлим шартларида иш бажараётган ёки битта ташкилотда ёки тармоқда кўп йиллик иш стажига эга бўлган ходимларга қўшимча таътилар берилиши, хусусан, бир ташкилотда ишлаган ҳар 5 йил учун ходим таътилга 2 календарь куни қўшилиши, аммо қўшиладиган кунлар сони 8 календарь кундан ошиб кетиши мумкин эмаслиги алоҳида таъкидланди.

Тадбир якунида иштирокчиларнинг саволларига масъул ходимлар томонидан батафсил жавоблар берилди. Йиғилишда муҳокама этилган масалалар юзасидан тегишли қарорлар қабул қилинди.

Феруза МАРДИЕВА,
Касаба уюшмаси мутахассиси.

AHOLI MUROJAATLARIGA JIDDIY ETIBOR QARATILDI

2023-yil davomida Navoiy shahar hokimligiga jami 4109 ta, shundan, 1035 ta yozma, 1049 ta og'zaki, 27 ta elektron pochta hamda 1998 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi orqali murojaatlar kelib tushgan bo'lib, (2022-yilning shu davri 5154 ta) o'tgan yilga nisbatdan 1045 taga yoki 20,3 foizga kamaygan.

Ushbu kelib tushgan murojaatlarning 2297 tasi yoki 57,7 foizi ijobiy hal etilgan, 1559 tasiga yoki 39,2 foiziga umumiy tushuntirish berilgan, 111 tasi yoki 2,8 foizi rad etilgan, 5 tasi yoki 0,1 foizi ko'rmasdan qoldirilgan, 8 tasi yoki 0,2 foizi tegishligi bo'yicha boshqa tashkilotlarga jo'natilgan, 129 ta murojaat o'rganish jarayonida.

Murojaatlar sohalar kesimida tahlil etilganda, 1052 tasi yoki 25,6 foizi uy-joy, 1011 tasi yoki 24,6 foizi moddiy yordam, 311 tasi yoki 7,6 foizi yotoqxona, 234 tasi yoki 5,7 foizi qurilish, 492 tasi yoki 12 foizi ishga joylashtirish masalalarida, 265 tasi yoki 6,4 foizi kommunal sohasida, 193 tasi yoki 4,7 foizi obodonlashtirish, 76 tasi yoki 1,8 foizi yer-joy, 87 tasi yoki 2,1 foizi uy-joyini ta'mirlash, 55 tasi yoki 1,3 foizi rahbarlar faoliyatidan norozi bo'lib, 81 tasi yoki 2 foizi tadbirkorlik bilan bog'liq masalalarda, 62 tasi yoki 1,5 foizi bozor va savdo sohasida, 190 tasi yoki 4,6 foizi boshqa turli masalalarga oid murojaatlarni tashkil etadi.

Murojaatlarni mahalla kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, eng ko'p murojaat "Yangiobod" MFYda 324 ta yoki 7,9 foizi, "Kimyogar" MFYda 243 ta yoki 5,9 foizi, "Yangi ariq" MFYda 197 ta yoki 4,8 foizi, "Yoshlik" MFYda 83 ta yoki 2 foizi, "Zarafshon" MFYda 79 ta yoki 1,9 foizi, "Bunyodkor" MFYda 101 ta yoki 2,5 foizi, "O'zbekiston" MFYda 112 ta yoki 2,7 foizi, "Hayot" MFYda 99 ta yoki 2,4 foizi, "Tinchlik" MFYda 81 ta yoki 1,9 foizi to'g'ri keladi.

Davlat rahbarining topshirig'iga asosan, aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni kengaytirish, mavjud dolzarb muammolarni aniqlash, ularni bevosita joyida bartaraf etish yuzasidan aniq va tezkor choralar ko'rish maqsadida tasdiqlangan reja-jadval asosida shaxsiy va ommaviy sayyor qabullar o'tkazib borildi.

Xususan, shahar hokimi tomonidan tasdiqlangan reja-jadvalga asosan 2023-yilda 57 marotaba shaxsiy hamda ommaviy sayyor qabul o'tkazilib, qabullar davomida jami 1020 nafar fuqarolarning murojaatlari qabul qilindi.

O'tkazilgan sayyor qabullarda murojaatlarning 466 tasi yoki 45,6 foizi qanoatlantirilgan, 348 tasi yoki 34,1 foizi tushuntirilgan hamda 179 tasi yoki 17,5 foiziga rad javobi berilgan bo'lib, 27 ta murojaat nazoratga olingan.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda qonunda belgilangan muddatlarga amal qilinishi hamda sifatli bajarilishida yo'l qo'yilgan kamchiliklar uchun Navoiy viloyati Xalq qabulxonasi tomonidan Navoiy shahar hokimligining bir qator mas'ul xodimlariga nisbatan ma'muriy javobgarlik chorasini qo'llanilishini so'rab, prokuratura organlariga 15 ta taqdimnoma kiritildi. Ushbu taqdimnomalarga asosan, Navoiy shahar hokimligining 2 nafar xodimiga nisbatan ma'muriy javobgarlik, 1 nafar xodimga "Jarima" chorasini qo'llanildi, 5 nafar xodimga "Hayfsan" jazo chorasini berildi.

Sanjar ISLOMOV,
Navoiy shahar hokimligining fuqarolar murojaatlari bo'yicha mas'uli.

ИШ САМАРАДОРЛИГИ МАҲАЛЛА ФАОЛЛАРИГА БОҒЛИҚ

Маълумки, яқинда Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси таъсис конференцияси иштирокчиларининг маҳаллалар фаолларига мурожаати қабул қилинди. Унда маҳаллаларнинг мамлакатимиз ижтимоий-иқтисодий тараққиёти ва халқимиз турмуш фаровонлигини таъминлашдаги ўрни келтирилган ҳолда, унинг фаолияти самарадорлигини янада ошириш борасидаги вазифалар кенг таҳлил қилинган.

Барчамиз учун муқаддас Ватан аввало ўз уйимиз, маҳалламиз остонасидан бошланади, дейилади жумладан Мурожаатда. — ҳаммамизнинг ҳаётимиздаги яхши ва беғубор дамлар, ташвишли кунлар, тақдиримиз ва келажагимиз ўзини ўзи бошқаришнинг ноёб тизими бўлган ана шу идора билан бевосита боғлиқ. Маҳалла обод бўлса — бутун мамлакатимиз обод ва фаровон бўлади.

Кейинги йилларда ана шу институтнинг жамият ҳаётидаги ўрни ва нуфузини, ваколатларини ошириш, моддий-техник базаси ва кадрлар салоҳиятини мустаҳкамлаш бўйича улкан ишлар амалга оширилди. Бу ҳақда гапирганда, охириги 7 йилда тизимни такомиллаштиришга қаратилган 100 га яқин норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилинганини, барча соҳа ва йўналишлар бўйича "маҳаллабай" ишлаш усули кенг жорий этилиб, маҳалла раиси, ҳоким ёрдамчиси,

ёшлар етакчиси, хотин-қизлар фаоли, профилактика инспектори, ижтимоий ходим ва солиқ инспекторидан иборат таъсирчан тузилма фаолияти йўлга қўйилгани ижобий самара бераётганини алоҳида таъкидлаш ўринлидир. Бу тизим босқичма-босқич ривожлантирилмоқда, унга қўшимча куч, имкониятлар бериляпти.

Шунинг баробарида, Мурожаатда маҳалла фаолияти самарадорлигини ҳозирги талаблар даражасида ошириш борасидаги маҳалла олдида турган муҳим вазифалар тилга олинган. Маҳалла ва оилаларда ижтимоий-маънавий муҳитни ўрганиш ҳамда аниқланган ижтимоий муаммолар мутасадди ташкилотлар томонидан бартараф этилиши устидан жамоатчилик назоратини қучайтирайлик! Ёшларимизнинг "онлайн қимор", "тармоқдаги ўғрилиқ", фирибгарлик каби иллатларга берилиб, жаҳолат қурбонига ай-

ланишига йўл қўймайлик! Тўй-ҳашамлардаги дабдабабозлик, исрофгарчиликка чек қўяйлик!

Агар сидқидилдан ҳаракат қилсак, маҳалланинг қурби етмайдиган ишнинг ўзи йўқ. Маҳалламиздаги жамоатчилик тузилмалари, "Маҳалла назорати" ва "Кексалар маслаҳати" гуруҳларига, "Оқила аёллар" ҳаракатига энг фаол ва жонкуяр фаолларни жалб этиб, уларни эзгу мақсад йўлида сафарбар этсак, ҳар қандай муаммони албатта ҳал қиламиз, дейилади жумладан.

Бу эса, асосан маҳалла фаолларининг эндиликда ўз вазифаларига янгича ёндашган ҳолда, масъулиятни янада оширилари тақозо этади. Бошқача қилиб айтганда, Мурожаатда таъкидланганидек, Президентимизнинг "Қайси маҳаллада иш тўғри ташкил этилиб, фуқаролар билан яқин ҳамкорлик ўрнатилса, ўша ерда ҳамжихатлик, меҳр-оқибат муҳити ҳукм суради, нохуш ҳолатларга йўл қўйилмайди", деган сўзлари фаоллар фаолиятида дастуриламал бўлиши лозим.

Ахрор БОЛИЕВ,
Камбағалликни қисқартириш ва бандликка кўмаклашиш бўлими бошлиғи в.в.б.

ЛАНГАР ҚЎРҒОНИ ОАВ НИГОҲИДА

Хатирчи тумани ҳокимлиги ҳамкорлигида Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси Навоий вилояти бўлими, Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги Навоий вилояти вакиллари амалга оширилаётган ишлар билан яқиндан танишиш ва кенг ёритиш мақсадида Хатирчи туманининг олис Лангар қўргонида бўлишди.

Жараёнда тоғлар бағрида жойлашган мазкур ҳудуддаги аҳолининг турмуш тарзи, тadbirkorlik имкониятлари, кичик бизнес, ўз ўзини банд қилиш бўйича қилинаётган ишлар ва ҳоким ёрдамчисининг фаолияти ижодий гуруҳнинг диққат-эътиборида бўлди. Хусусан, ҳудуддаги тирикчилик маҳсулотлари ишлаб чиқаришга ихтисослашган "SAAF tex" МЧЖ ишчи-ходимларининг иш фаолияти кўздан кечирилди. Таъкидлаш жоизки, бугунги кунда ушбу корхонада 50 нафар маҳаллий аҳоли доимий иш билан банд.

Бугунги кунда Лангар қўргонидаги 645 та оилада 3010 нафар аҳоли истиқомат қилади. Уларнинг 1500 нафардан зиёдрогини хотин-қизлар ташкил этади.

Дилором САРМОНОВА.

УМР ҲИКМАТИ

Фахрий журналист Достон Мавлонов сувратига чизгилар

Адабиёт, хусусан, журналистика майдонида ўзига хос ижод мактабини яратган устоз ижодкорлар, матбуот вакиллари борки, уларнинг тажрибаси ҳар доим ёшларга мактаб вазифасини ўтайди. Навоий вилоятидаги кўплаб ижодкорлар фахрий журналист Достон Мавлоновни ана шундай устозлардан бири сифатида эъзозлаб, хурмат қилишади.

1979 йилда Самарқанд давлат университетининг филология факультетини тамомлаб, меҳнат фаолиятини Навбахор туманидаги мактабда ўзбек тили ва адабиёти фанидан дарс бериш билан бошлаган Достон Мавлонов дарсдан бўш вақтларида мактабдаги ҳаваскор ижодкорларга шеърят сирларидан сабоқ беради.

Ёшлигидан газета ва журналларни севиб ўқийдиган ва ўзи ҳам бир кун келиб ана шундай нуфузли газеталарда ишлашни орзу қилган Достон Мавлоновни журналистика соҳасига бўлган муҳаббат 1982 йилда Кармана туманининг ҳозирги "Кармана овози" газетаси томон етаклайди. Газетадаги фаолиятини катта мухбир вазифасидан бошлаб, бу даргоҳда таниқли шоир ва журналист Одил ҳотамовнинг ўғит ва насиҳатларидан, катта ижодий тажрибасидан баҳраманд бўлади. Интилувчанлиги, теран билими, меҳнатга ижобий ёндашуви туфайли бўлим мудир, масъул котиб вазифаларида иш олиб бориб, газета фаолияти, унда чоп этилаётган ҳар бир мақола ва хабарларнинг мазмундорлигини оширишга масъулият билан ёндашади. Шу давр мобайнида ўткир мақолалари билан газетхонлар ва жамоатчилик эътиборига тушади. Самарали меҳнат қилиб, мазкур нашрнинг халқ орасида нуфузи ошишига муносиб ҳисса қўшади. Шунингдек, Достон аканинг атрофида шеърятга, журналистикага қизиқувчи ҳаваскор ижодкорлар сони ошиб боради.

— Мен биринчи ижодий сабоқни мактабда ўқиб юрган чоғларимдаёқ Достон Мавлоновдан олганман, —



дейди Навоий вилоят телерадио-компаниясининг радио гуруҳи мухбири, Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси аъзоси Гуландом Юнусова. — Ўша даврларда биз кўпчилик мактаб ўқувчилари ана шундай газеталарда шеърларимиз чиқишини орзу қилардик ва устоздан шеърят, адабиёт, шеър санъати, мақолани қандай ёзиш кераклиги ҳақида ўғит ва насиҳатларни олардик. Устоз бизга эринмай бадий адабиётда ташбеҳ, муболаға санъати, шеърда бадийлик, журналистикада аниқлик, тезкорлик каби фикрларни сингдириб борарди. Тўғри ва аниқ мақсадга қаратилган йўналиш ва сабоқлари натижасида мана бугун Достон Мавлонов ижодий тўғарагига қатнаган кўпчилик шогирдлар журналистика йўналишида фаолият олиб бормоқда.

Дарвоқе, журналист ва филолог

Достон Мавлонов 2013 йилда вилоят телерадио компанияси радио эшитиришлар таҳририятида муҳаррир вазифасида фаолият кўрсатиб, радио эшитиришлар самарадорлиги ошишида ҳам ҳиссасини қўшганлиги аҳамиятлидир. Табиатан серҳаракат, серғайрат Достон Мавлонов Навоий вилояти ҳокимлиги муассислигидаги "Дўстлик байроғи" ва "Знамя дружбы" газеталари таҳририятида бўлим муҳаррири сифатида фаолиятини давом эттириб, журналистика соҳасида самарали ҳамда фаол иш олиб борди. Бу даврда у нафақат вилоятда, балки республикада амалга оширилаётган ислохотларни тезкор ёритиб боришда, шунингдек, юртимизда сўз эркинлиги ва очиқлик сиёсатини таъминлашда фидойилик кўрсатиб, ўткир қалам соҳиби сифатида танилди.

Устоз-журналист қатор тармоқ газеталари, хусусан, Навоий давлат педагогика институтининг "Муаллим", вилоят халқ таълими бошқармасининг "Зиёкор садоси", "Чашмаи-Нур" ижтимоий-маърифий газеталарига ҳам муҳаррирлик қилди.

Ижодкорнинг Тошкентдаги "Наврўз" нашриётида чоп этилган "Умр ҳикмати", "Юракдаги Ватан" шеърӣ тўпламлари, турли даврий нашрларда эълон қилинган феълетонлари, ҳажвий ҳикоялари, репортажлари, бадий лавҳалари, публицистик мақолалари газетхонлар қалбидан муносиб ўрин олди.

Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси аъзоси, салкам 70 ёшнинг остонасида турган фахрий журналист Достон Мавлонов бугунги кунда ҳам ўзининг бой ижодий тажрибаси билан журналистика соҳасига, бадий адабиётга қадам қўяётган ёшларга ибрат бўлиб келаётгани қувонарлидир.

Санокул ОРОЛ.

ЖУРНАЛИСТ ВА БЛОГЕРЛАР АЙДАРКЎЛДА

Вилоят ҳокимлиги, Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши бошқармаси, Ўзбекистон Журналистлар Уюшмаси вилоят бўлими ва Ахборот ва оммавий коммуникациялар бошқармаси ҳамкорлигида Рамсар Конвенцияси қабул қилинган сана — 2 февраль — "Жаҳон сув-ботқоқлик ҳудудлари куни" муносабати билан Айдаркўл сув ҳавзасига пресс-тур ташкил этилди.

Унда журналистлар, блогерлар ҳамда вилоят Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, иқлим ўзгариши бошқармаси масъул ходимлари иштирок этди. Тадбирда бошқарма масъуллари Рамсар Конвенцияси ва Айдаркўл сув ҳавзаси ҳақида батафсил маълумот бериб ўтди.

— Вилоятимиздаги учта, хусусан "Айдаркўл", "Тўдакўл" сингари сув ҳавзалари Рамсар Конвенцияси рўйхатида киритилган. Чунки бу ҳудудларда мавсумий кушлар келиб қўнади ҳамда шу ерда маълум муддат яшаши, — дейди Навоий вилоят Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, иқлим ўзгариши бошқармаси Ахборот хизмати раҳбари Зубайда Душанова. — Айниқса Айдаркўлда сувда сузувчи куш турлари кўп. Камёбларидан пушти пеликанлар, оққуш, балиқчи ўрдак, оқ қўтон ва бошқа кушларни учратиш мумкин.

Пресс-тур қатнашчилари ноёб табиат мўъжизаларини ўзида жамлаган Айдаркўл ва унинг мамлакатимиз иқтисодиётидаги ўрни, экология, атроф-муҳит муҳофазаси ва иқлим ўзгариши борасида олиб борилаётган ишлар хусусида ўзларини қизиқтирган саволларга соҳа мутахассисларидан атрофлича жавоблар олдилар.

— Айдаркўл сув ҳавзаси ўзига хос табиати ва тарихи билан юртимизнинг муҳим аҳамиятга эга туризм масканларидан бири ҳисобланади, — дейди Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси Навоий вилояти бўлими раиси Отабек Аслонов. — Уни "Қумлар орасидаги



феруза дарё" деб ҳам номлашади. Қизилқум саҳросида жойлашган бу кўл ноёб табиат ҳодисалари билан бу ерга келувчиларни ҳайратга солади. Айдаркўл Орол денгизининг ўзига хос экологик антиподи, оқмас ҳовузидир. У нафақат маҳаллий саёҳатчиларни, балки юртимизга ташриф буюрувчи хорижлик сайёҳларни ҳам ўзига чорлаши билан ички ва ташқи туризмни ривожлантиришда ўзига хос аҳамиятга эга. Пресс-турдан кўзланган асосий мақсад эса журналист ва блогерларни саёҳат кўринишида рағбатлантириш билан бир қаторда, юртимиздаги ноёб дурдона сув ҳавзаларидан бири бўлган Айдаркўлнинг ўзига хос жиҳатлари, флора ва Фаунасининг уйғунлиги, атроф-муҳит муҳофазаси билан яқиндан таништиришдан иборат бўлди.

Саҳро бағридаги табиат манзаралари билан уйғун кечган тадбир қизиқарли ва мазмунли, таассуротларга бой бўлди.

Дилором САРМОНОВА,
Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси
вилоят бўлими мутахассиси.

Жаҳон Соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотиға кўра, ер юзиде 2 миллиардга яқин киши йод танқис ҳудудларда истиқомат қилади. Йод танамиз учун жуда зарур микроунсур ҳисобланиб, қалқонсимон без фаолиятида иштирок этади, боланинг жисман ва ақлан ривожланишида муҳим аҳамиятга эга.

ЙОДЛАНГАН ОШ ТУЗИ — ИНСОН САЛОМАТЛИГИ ГАРОВИ!

Йод етишмаслиги бир қатор касалликлар, жумладан, эндемик буқоқа олиб келади. Эндемик буқоқа — йод танқислиги кузатиладиган маълум ҳудудда яшовчи кишиларда қалқонсимон безнинг катталашиши билан кечувчи касаллик. Маълумки, қалқонсимон без ақлий ва жисмоний ривожланишни таъминлаб, организмда моддалар алмашинуви тезлигини бошқаради. Озиқ-овқат маҳсулотлари, сувда йоднинг кам бўлиши натижасида эса организмга йод етарлича тушмайди ва касалликка сабаб бўлади. Йод етишмаслиги оқибатида аёлларда бепуштлиқ, камқонлик, ўлик бола туғиш, ҳомиладорликнинг оғир кечиши, эркакларда эса уйқучанлик, нафас сиқиши, соч рангининг ўзгариши ёки тўкилиши, дармонсизлик, бош оғриғи, тирноқ ҳамда тишларнинг синиши, жинсий заифлик кузатилади. Буқоғи бор қизларда жинсий жиҳатдан етилиш кечикади, ҳайз даврийлиги бузилади. Энг ёмони болаларда ақли заифлик келиб чиқиши мумкин.

Эндемик буқоқа учраган беморларда қалқонсимон без катталашиб, умумий ҳолсизлик, чарчаш, бош оғриғи, юрак соҳасида ноҳушлиқ сезилади. Бўғилиш, нафас олиш қийинлашиши, қуруқ йўтал каби белгилар юзага келади. Катталашган қалқонсимон без нисбатан қаттиқлашган, зич бўлади. Бемор ўз вақтида шифокор маслаҳати ва парҳезга амал қилиб даволанса, жароҳлик амалисиз ҳам соғайиб кетиши мумкин. Йод танқислигининг олдини олишда энг маъқул чораларидан бири ош тузини йодлашдир.

Мамлакатимизда йодланган ош тузи "Аҳоли ўртасида микронутриент етишмаслиги профилактикаси тўғрисида"ги Қонун асосида ишлаб чиқарилади. Давлат стандарти талабларига кўра, ош тузи таркибида йод миқдори тоннасига 40 грамм миқдорда бўлиши белгилаб қўйилган. Организмдаги моддалар алмашинувини меъёрлаштириш учун кунига бир чой қошиқ — 5 грамм ош тузи истеъмол қилиш тавсия этилади. Қолаверса, у йод танқислиги касаллигининг олдини олишга ҳам хизмат қилади.

Сифатли ош тузининг қадоғида ишлаб чиқарган ташкилот номи, товар белгиси, маҳсулотноми, унинг нави ва янчилиш даражаси, ишлаб чиқарилган санаси, норматив ҳужжатноми, яроқлилик муддати, йодлаш қўшимча синоми ҳамда йод улуши каби бир қанча маълумотлар акс этган бўлиши керак.

Қотиб қолган, нам тортган, бегона ҳидларга эга бўлган, яроқлилик муддати ўтган, қадоқлари бузилган ош тузларининг фойдали хусусиятлари йўқолган бўлади. Бундай маҳсулотларни истеъмол қилмасликни тавсия этамиз.

М. ТУРДИҚУЛОВА,
Навоий шаҳар СЗО ва ЖС
бўлими санитария врач.

ГОДЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ "СУДМЕДЭКСПЕРТИЗА"

За недолгие годы независимости нашей страны, судебно-медицинская экспертиза зарекомендовала себя со стороны очень сложной и кропотливой службой. Она развивается с каждым годом и идет в ногу со временем. За 5 лет Навоийским филиалом республиканского центра "Судмедэкспертиза" было закуплено много разнообразной медицинской техники, которая улучшила не только эффективность нелёгкого труда работников, но и дала большой результат в раскрытии судебных дел.

Со стороны Президента Республики Узбекистан, Министерства Здравоохранения и Навоийского областного управления Здравоохранения ведется большая работа по улучшению научно-технической базы судебно-медицинской экспертизы. Благодаря нашему Президенту в 2023 году было закуплено оборудование на общую сумму 458 325000 сум.

Также ведется работа с молодыми учеными, студентами. Привлекаем студентов медицинских институтов, чтобы они выбрали нашу стезю. На 2024 год с сотрудниками прокуратуры и внутренних дел запланированы семинары, в которых происходит обмен опытом. Так же на

2024 год запланированы выступления судебно-медицинских экспертов в махаллях, где будут затронуты темы интересующие население нашей области.

В заключении хочу обратиться жителям навоийской области. Имеются ли у вас вопросы или вы хотели чтобы ваш сын или дочь в будущем стали судебным экспертами? Обращайтесь по телефонному номеру 79-224-30-31. Будем рады вам помочь.

С. ГАМИДОВ,
Руководитель Навоийского филиала республиканского центра "Судмедэкспертиза".

СИЛ ВА ОИВ ҲАҚИДА НИМАЛАРНИ БИЛИШ КЕРАК?

Ўзбекистон Соғлиқни сақлаш вазирлиги маълумотида кўра, мамлакатда сил билан касалланиш даражаси ҳар 100 минг кишига 42,9 тани, ўлим кўрсаткичи эса 1,6 тани ташкил қилади. Ўзбекистонда сил касаллигига чалинган беморни 2 соат ичида аниқлаш имконини берадиган беш табақали лаборатория тизими йўлга қўйилган. Тошкент, Нукус ва Самарқанд шаҳарларида халқаро сертификатга эга бўлган, жаҳондаги кучли ўнта лаборатория сафига кирган Миллий референс лабораториялари фаолият кўрсатмоқда. Фаол сил жараёнини аниқлаш мақсадида "Диаскин тест" усули амалиётга тадбиқ қилинган. Шунингдек, Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг тавсиясига кўра, латент сил билан оғирган шахсларни вақтида аниқлаш ва профилактик чоралар кўриш учун туберкулин диагностика йўлга қўйилган. Натижада, 2018 йил якуни бўйича сил билан касалланиш 2017 йилга нисбатан 4,5 фоизга, 2015 йилга нисбатан 9 фоизга камайган. 2019 йилда Ўзбекистонда 2021 йилгача сил касаллигига қарши курашиш учун 118 миллиард сўмдан ортиқ маблағ ажратилган. АҚШнинг USAID фонди бу борада Ўзбекистонни фаол қўллаб-қувватлаб келади.

ОИВ инфекцияси билан зарарланганларнинг 95 фоизи ривожланаётган давлатлар ҳудудларида яшаб, шу ҳудудларда зарарланган шахслар сони янада кўпайиб бормоқда. Зарарланган шахсларнинг аксарияти катта ёшдаги аҳоли ҳисобланиб, бу шундоқ ҳам иқтисодий аҳоли унчалик яхши бўлмаган давлатларда ишлаб чиқарувчи ёшдаги аҳоли орасида ногиронлик ва ўлим кўрсаткичи ошишига олиб келмоқдаки, оқибатда давлатнинг иқтисодий ночорлиги янада кучайишига сабаб бўляпти. Асосан, Африка қитъаси, Жанубий Америка, Жанубий-Шарқий Осиё давлатлари ОИВ кенг тарқалган ҳудудлар ҳисобланади. ОИВ билан зарарланган шахслар, ОИВнинг клиник босқичига, иммун тизимининг зарарланиш даражасига қараб, турли инфекцияни касалликларни кўзгашилари мумкин.

Аммо пневмококклар, салмонеллалар ва сил микобактериялари ОИВнинг ҳар қандай клиник босқичида ҳам касаллик кўзгашилари мумкин. Ушбу инфекциялардан энг хавфлиси ва энг катта зарар етказиши мумкин бўлгани — сил микобактерияларидир. Маълумки, бутун дунёда сил касаллиги муаммоси энг долзарб масалалардан ҳисобланиб, унинг кенг тарқалиши ҳудуди ҳам юқоридаги ОИВ кенг тарқалган ҳудудлар билан бир хил бўлиб, ушбу иккала инфекциянинг бир шахсда биргаликда учраш ҳоллари кундан-кунга кўпайиб бормоқда. ОИВ билан зарарланган шахсларнинг учдан бир қисми сил билан зарарланганлиги аниқланган. ОИВ билан зарарланган шахслар сонини камайтириш чоралари кўрилмаса, улар орасида сил беморлари сони ҳам шунчалик тез кўпаяди ва сил таёқчалари ажратувчилари аҳоли орасида кенг тар-

қалишига сабаб бўлади. Шу тариқа ОИВ сил билан қўшилиб келиши эпидемиологик вазиятни издан чиқишига сабаб бўлади ва ОИВ билан зарарланган шахсларнинг асосий қисми силдан ўлишига олиб келади.

ОИВ инфекциясининг эрта ва енгил иммунотанқислик босқичларида реактивация ёки реинфекция ҳисобида иккиламчи сил касаллиги ривожланиб, бу оддий силдан деярли фарқ қилмайди. Кўп ҳолларда ўпка сили беморлари сил таёқчалари ажратувчилар ҳисобланадилар ва бактериоскопияга асосланган ҳолда осонгина ташхис қўйиш мумкин. Аммо иммун танқислиги кучайган сари ўпка ва ўпкадан ташқари аъзолар зарарланиши худди бирламчи силга ўхшаш бўлиб, ташхис қўйиш бир мунча қийинлашади. Силнинг тарқалган оғир формалари учраши кўпаяди.

Иммунодепрессия фонида ўпка силининг сил таёқчалари ажратмайдиган турлари оғир формалари ривожланиши ва организмда бошқа инфекциялар ривожланишининг клиник белгилари ҳам қўшилиб келиши, сил касаллигига ташхис қўйишни анчагина қийинлаштиради. СД-4 лимфоцитлар сони 100 мкл ва ундан пайсайдан эса, сил бактерияси ривожланиб, 10-20 фоиз ОИВ билан зарарланган ва госпитализация қилинган беморларда аниқланади. Бундай ҳолларда ўлим кўрсаткичи 32 фоиздан ортиши мумкин. Бир неча йиллар мобайнида сил ва ОИВ муаммолари билан шуғулланувчи мутахассислар алоҳида, мустақил фаолият олиб боришди. Аммо кейинги кузатиш ва тажрибалар муаммоларни биргаликда ҳал қилиш зарурлигини кўрсатмоқда.

С. БОБОМУРОВОВ,
Фтизиатр шифокор.

Навоий вилоят қон қуйиш станциясида Ўзбекистон ИИВ Навоий академик лицейининг ўқитувчи ва ўқувчилари иштирокида "Мен донорман" мавзусида маънавий-маърифий тадбир бўлиб ўтди.

ДОНОР — КУН ҚАХРАМОНИ!



Унда катнашчиларга, мамлакатимизнинг 2002 йил 30 августда қабул қилинган "Қон ва унинг таркибий қисмлари" тўғрисидаги қонуни ҳамда 2022 йил 9 августдаги "Республикада қон билан ишлаш хизмати муассасалари фаолиятини янада такомиллаштириш ва аҳоли орасида беғараз донорлик ҳаракатини ривожлантириш чоралари тўғрисида"ги қарори тўғрисида маълумот берилди.

Шундан сўнг, станция раҳбари томонидан 2023 йил 1 январдан қон донорлари учун муайян имтиёзлар берилганлиги, жумладан "Ўзбекистон Республикаси фахрий донори" кўкрак нишони таъсис этилганлиги, ушбу кўкрак нишон билан тақдирланган шахсларга 4,5 млн сўмдан пул тўланиши йўлга қўйилганлиги ҳамда улар жамоат транспортидан бепул фойдаланишлари, санаторийларга навбатсиз йўлланма олишлари мумкинлиги таъкидланди. Йилига 3 марта қон топширганлар ва уларнинг қариндошларига зарур бўлганда, қон бепул берилиш тизими мавжудлигини маълум қилди.

ланди.

Донорлик, унинг афзалликлари ҳақида тушунчалар берилди. Қон топшириш инсонпарварликнинг эзгу кўриниши эканлиги, оғир аҳволдаги инсонларнинг ҳаётини сақлаб қолишда муҳим аҳамиятга эга эканлиги қайд этилди.

Тадбирда мутахассислар томонидан ўқувчиларга соғлом турмуш тарзига қатъий амал қилиш, санитария-гигиена қоидаларига риоя этиш инсон ҳаёти учун муҳим аҳамиятга эга эканлиги, спиртли ичимликларга ружу қўйиш, чекиш ва бошқа салбий иллатлар инсон ҳаётига зомин бўлиши тушунтирилди.

Қон қуйиш станциясига ташриф ўқувчиларда юсак инсонпарварлик туйғуларини шакллантириш билан бир пайтда, "Донорлар бугунги куннинг ҳақиқий қаҳрамонлари" деган тушунчанинг пайдо бўлишига хизмат қилиши, шубҳасиз.

Мурат НАЖМИДДИНОВ,
Ўзбекистон Республикаси ИИВ
Навоий академик
лицейи ходими.

ОҚ КАБУТАРИМ (бўлган воқеа)

Жонажон қишлоғим ва яқинларимдан айирлиб ўқишга кетиш анча қийин бўларкан. Ҳамма менга хавас қиларди. Оддий бир деҳқоннинг фарзанди олий ўқув юртига грант асосида кириши ҳеч кимнинг тушига қирмаган эди. Бундай бахтга эришиш учун ахир қанча меҳнатим, вақтим, сабрим кетди. Онам укаларимга менга эшиттириб мактаб гапирганида роса суйиниб кетардим. Ўқишни ҳам битириб уша шаҳардаги бир ташкилотга муҳандис бўлиб ишга кирдим. Ишларим жуда яхши кетарди. Иш жараёнида кўп танишлар орттирдим. Ўзим ишлайдиган ташкилотда бир болали бева аёлнинг менга бефарқ эмаслигини сезиб юрардим. Янги йил арафасида уюштирилган базмдан чиқиб, у аёлни ўйига кузатиб қўйдим. Кўча қоронғи, жуда кеч бўлганди. Подъезд яқинига келганда у аёл менга севги изҳор этди. Озгина мастлигимми, у аёлнинг чиройими, билмайман хуллас уша тун униқиди қолдим. Ишхонада ҳамкасб, тунлари эса айрилмас жуфтлик бўлиб яшаб юрдик.

Қишлоқга келсам онам менга қиз топиб қўйбди. Учрашувга чиқдим. Қиз онам айтганичалик, жуда рисоладагидек экан. У қизни ҳақиқатан севиб қолдим. Телефонда гаплашиб турардик. Ишхонадаги аёлниқига ҳам вақти-вақти билан бориб турардим. Тўй арафасида ЗАГСдан олдинги тиббий кўрикдан ўтдик.



Афсуски, менда ОИВ борлиги аниқланди. Бу ҳақда бўлажак турмуш ўртоғимга айтганимда у мендан юз ўгириб кетди. Тўйимизни тўхтатишди. Бу вируснинг юқиш йўлларида бири жинсий йўл эканлигини биллиб олдим.

Суриштирсам, мен билан бирга ишлайдиган аёл ОИВ инфекцияси билан диспансер назоратида тураркан. Энди бошимни қайга уришимни билмай қолдим. Ахир менга нима етишмасди? Ота-онам, укаларим, қишлоғимдаги ёру биродорлар олдида ким деган одам бўлдим. Бунга ким айбдор, ўйланиб қолдим?! Ахир ўша кун у аёлни кузатиб қайтиб кетсам ҳам бўлардику. Йигитлигимни исботлайман деб ўзимни хароб қилдим. Ҳамма орзуларим, муҳаббатим, обрийим оппоқ кабутардек, бир пир этдию учиб кетди.

Юлдуз РАҲИМОВА,
ОИТСга қарши курашиш
маркази УП ва ЭҚТТЭ бўлими
эпидемиолог вақчи.

"САДДИ ИСКАНДАРИЙ"ДА ЎЗБЕК ҚАВМИ ЭЪТИРОФИ

Алишер Навоий чигатой улуси таркибидаги (92 боғли қавм) манғит, қирқ, юз (уй-шун), қўнғирот, қиёт, найман ва бошқа қипчоқ шеvasида сўзлашувчи ўзбек қавмларни яхши билган. Масалан, "Садди Искандарий" достонида Искандар қўшинларининг ўнг қанотида бораётган бир неча юз минг ўзбек ва манғит "Самарқанддин токи сарҳади Чин"гача саф тортгани шундай тасвир этилади:

*Яна манғит ўзбек била ёндошиб,
Ики зулфдек тузлари чирмашиб.
Алар ёнида Моварауннахр эли,
Ики руд орасида ўн шахр эли.*

Бундан кўринадики, кейинги асрларда рус-славян, форсий ва айрим яҳудий ҳамда хитой туркийшунос тарихчи олимлари монографияларидаги манбаларда ўзбекларга туркийлашган муғуллар деб қараш, уларни қўчманчи ва босқинчи деб ҳисоблаш ҳоллари мутлақо асоссиз ва хато. Чунки, ҳазрат Алишер Навоий бу қавмлар минг йиллик ўтроқ халқлар эканлигини тан олган ҳолда алоҳида ҳурмат ва икром билан қаламга олади. Аввал, шоирнинг тасвирида "Ўзбек" деб аталган катта эл Искандар яшаган миллоддан аввалги даврларда ҳам Самарқанд шаҳри ва унинг атрофида муқим яшаганлиги диққатга сазовордир. Искандар афсонавий подшоҳ бўлгани каби унинг қўшини сафида бир неча юз минг ўзбек қавмларининг ҳам бўлганлиги шоирнинг бадиий тасаввуридаги ҳақиқатлар маҳсулидир.

Лекин Искандар (Александр Македонский) образи тарихий асосга эга эканлигини билганимиз каби унинг даврида ўзбекларнинг туркий ажодлари Самарқанд ва унинг атрофларини ватан қилганликлари "Алп Эр Тўнга" достони ва унинг номи билан Афросиёб деб аталган шаҳарнинг ҳанузгача сақланиб турганлиги ва буни ундан айна пайтда қазиб олинган ноёб ва бетакрор меъморчилик осори-атиқалари, минглаб далил ва фактлар исботлаб турибди.

Навоий тасаввурида ўзбек ва манғит қавми икки дарё оралиғида Моварауннахрда ёнма-ён яшайди, жангга ҳам бир саф бўлиб боради. Навоийнинг бу нуқтаи

назари фақат ўтмишга эмас, келажакка ҳам йўналтирилган. Шоирнинг буюк даҳоси — унга келажакни олдиндан кўраётгандек, асрлар ўтиши билан шоир энг улкан меҳру оқибатни ўзбек халқидан кўришини ва барча туркий халқлар орасидан шу халқ уни ўзининг мумтоз адабиёти ва адабий тилининг асосчиси деб тан олишини башорат қилгандек бўлади. Тасодиф эмаски, улуғ шоир ўзбек номини қайта-қайта қаламга олар экан, ҳар сафар бу халққа хос бўлган бирон бир фазилатга эътиборини кучайтиради.

*Ҳалол она сутидек гар ўзбегим тутса,
Тобуқ қилиб, юкиниб, тустоғон ичинда қимиз.* (тустағон, истахан — суюқлик солинадиган идиш бўлиб, бу сўзларни руслар стан-кан деб ўзлаштириб олган)

Ёки

*Шоҳу хилъатекимен мен тамошо қилғали,
Ўзбаким бошида қалпоқ, эғнида ширдоғи бас.*

Алишер Навоий "она сутидек ҳалол" деган таъриф билан қимиз тутган ўзбекка меҳр изҳор қилгандек бўлади. Шеърдаги "тубик, тустағон, юкиниб" деган ўзбекча сўзлар мусаффо она тилимизнинг бойликлари намоён қилади. Бу сўзлар қипчоқ шеvasида бўлгани каби, қимиз тоновул қиладиган шаҳарлик ўзбек қавмларининг сўзлашув тилида ҳам бўлган. Шоир оддий юртдошлари киядиган қалпоқ (баъзан тақя деб ҳам ёзади) яъни, дўппи маъносида ва устки кийим — ширдорғи шоҳлар киядиган хилъатдан мароқлироқ дейиш билан яна ўзбек қавмига бўлган ҳурмат-эътиромини кўрсатади.

Шоир ўзбек халқининг туркий қавмлар орасида алоҳида ўрни ва улкан истикболи борлигини юракдан ҳис қилган. Эркин Воҳидовни машҳур қилган "Ўзбегим" шеъридан беш ярим аср олдин Навоий ўзбекларни ўзининг халқи ҳисоблаган ва илк бор уларни меҳр билан "ЎЗБАКИМ" деб шеърга солиб қуйлагани адабий тилимиз тарихининг ноёб ҳодисасидир.

Фарҳод РАҲМОНОВ,
Навоий шаҳар ҳокими маслаҳатчиси.

Жиноят ишлари бўйича Навоий шаҳар судида 1989 йилда Қизилтепа туманида туғилган, олий маълумотли, Навоий вилоят кўп тармоқли тиббиёт марказида техник хавфсизлик муҳандиси вазифасида ишлаб келган Гулҳаё Бузруковага нисбатан жиноят иши кўриб чиқилди.

ДАВОМЛИ ФИРИБГАРЛИКЛАРИ УЧУН ЖАЪЗОСИНИ ОЛДИ

Судланувчи Г. Бузрукова 2023 йил март ойининг бошларида Н.Сафоевнинг иш қидириб юрганлигидан фойдаланиб, унга ўзини НКМК қарашли 1-ГМЗда техника хавфсизлиги муҳандиси вазифасида ишлашини айтиб, унинг ишончига киради. Уни Нурота тумани "Қизилча" қишлоғи ҳудудида янги ташкил этилган НКМКга қарашли 6-ГМЗ карьерига "Белаз" русумли юк машина ҳайдовчиси вазифасига 3500 АҚШ доллари эвазига НКМК кадрлар бўлимида ишловчи танишлари орқали ишга киритишни ваъда қилади. Ундан 1000 АҚШ доллари беришини талаб қилиб, қолган 2500 АҚШ долларини ишга киргандан кейин ҳар ойлик маошидан 200 АҚШ долларидан бериб беришини айтиди. 2023 йил 12 март куни Н.Сафоевдан 1000 АҚШ долларини Кармана туманидаги Кўз касалликлари шифохонаси биноси олдида олиб, ўз эҳтиёжлари учун ишлатиб юборади.

Шунингдек, у жиноий ҳаракатларини такроран давом эттириб, 2023 йил март ойида таниши А.Абдурасуловни ишга кириш ниятида эканлигидан фойдаланиб, унга ўзини НКМК қарашли ГМЗда ишлашига ишонтириб, НКМКга қарашли 6-ГМЗ карьерига ҳайдовчилик вазифасига ишга киритиш учун олдиндан 3 500 000 сўмни 300 АҚШ долларига ҳисоблаб, ишга киргандан кейин қолганини беришини айтиб, 2023 йил 14 март куни Навоий шаҳридаги "Алладин" кафеси олдида ундан 3 500 000 сўм пулни олиб, ўзининг шахсий эҳтиёжлари учун ишлатиб юборган.

Шунингдек, у 2023 йил март ойининг ўрталарида таниши, У. Мансуровга қўнғироқ

қилиб, НКМК қарашли янги заводга ҳайдовчи вазифасига 1000 АҚШ доллари эвазига ишга киритишига ишонтириб, олдиндан ушбу пул маблағининг ярмини беришини, қолганини кейинчалик беришини айтиб, ундан олдиндан 5 500 000 сўм пулни 500 АҚШ долларига ҳисоблаб олган. Бундан ташқари, у У. Мансуровдан онасини даволатиш, операция қилдириш баҳонасида 12 млн сўм пулни қарз сифатида олиб, ўзининг шахсий эҳтиёжлари учун ишлатиб юборган.

Шу орада ишга киритиб қўйиш баҳонасида, қолганини кейин бериш шарти билан И. Жўракуловдан 650 АҚШ доллари, Ф. Хусеновдан 1500 АҚШ доллари, Ж. Шомуротовдан 5 500 000 сўмни фирибгарлик йўли билан олган.

Суд мажлисида судланувчи Г. Бузрукова айбига икромлик билдириб, дастлабки терговда берган кўрсатувларини тасдиқлаб, қилган ишидан пушаймон эканлигини, оилавий шароитини, аёллигини, соғлиғи ёмон эканлигини инобатга олиб, суддан унга нисбатан қонуний енгиллик беришни сўраб кўрсатув берди.

Юқоридагиларга ҳамда Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг тегишли моддаларига амал қилиб, суд Г. Бузруковани Ўзбекистон Республикаси ЖК 168-моддаси 3-қисмининг "б" банди, 28,211-моддаси 2-қисми "а" бандида назарда тутилган жиноятларни содир этганликда айбли деб топди. Г. Бузруковага узил-кесил 3 йил 6 ой муддатга озодликдан маҳрум қилиш жазоси тайинланди.

М. КАМОЛОВ,
Жиноят ишлари бўйича
Навоий шаҳар суди судьяси.

НАВОИЙ ИЖОДИ БИЛИМДОНЛАРИ ТАНЛОВИ



Мир Алишер Навоий ижодий меросини ўрганиш ва тарғиб қилиш борасида вилоятдаги ўрта умумтаълим мактаблари томонидан олиб борилаётган ишлар кўлами тобора кенгайиб бормоқда. Вилоят мактабгача ва мактаб таълими бошқармаси, "Алишер Навоий нодир меросини тарғибот маркази" жамоат бирлашмаси ва "Маҳалла" хайрия жамоат фонди вилоят бўлими ҳамкорлигида мактаблар ўртасидаги "Мир Алишер Навоий ижодий меросининг тарғибот-чиси" вилоят кўрик-танлови ҳам бу борада муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Навоий шаҳридаги 11-мактаб жамоаси танлов ғолиблигини, 19-мактаб ўқувчилари эса иккинчи ўринни қўлга киритишди. Учта учинчи ўринга эса, Кармана туманидаги 22-, Учкудуқ туманидаги 18- ҳамда Навбаҳор туманидаги 22- мактаблар ёш Навоий ижоди билимдонлари кўтарилишди.

Танловнинг ғолиб ва совриндорлари ташаккурнома ҳамда эсдалик совғалари билан тақдирланди.

Малика СОЛИЕВА,
"Алишер Навоий нодир меросини тарғибот маркази" жамоат бирлашмаси аъзоси.

BOBUR — ADOLATLI SHOH VA BUYUK SARKARDA

Buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur otasi fojiali ravishda hayotdan ko'z yumgach, 12 yoshligida mam-lakat taxtiga o'tiradi. Hukmdorligining dastlabki 2-3 yilini o'zaro nizo va kelishmovchiliklarni bartaraf etishga, o'z mavqeini mustahkamlashga sarflaydi.

Lekin, uning asl maqsadi bundanda ulug'vorroq — bobosi Amir Temur saltanatini qayta tiklash edi. Buning uchun avvalo bir paytlar ulug' saltanatning poytaxti bo'lgan Samarqandni egallash lozim deb hisoblardi. Shu maqsadda amalga oshirgan 1495-1496-yillardagi harbiy yurishlari muvaffaqiyatsiz kechadi. Nihoyat 1497-yilda 7 oylik qamaldan so'ng Samarqandni qo'lga kiritadi. Ammo turli iqtisodiy, harbiy va boshqa qiyinchiliklarga duch kelavergach, yuz kundan keyin shahardan chiqib ketadi.

Bobur ikkinchi marta Samarqandni 1500 yilning kuzida egallaydi. Shayboniyxonning shaharda qoldirgan lashkari mahv etiladi. Ammo kelasi yil bahorida Shayboniyxon katta qo'shin bilan bostirib keladi.

Bobur Mirzo 1501-yil aprelida bo'lgan jangda mag'lubiyat alaminini tortadi. Uning tug'ma sarkardalik iste'dodi to'ju taxt uchun kurashlarda ana shunday biri-birini almashtirib turgan g'alabalar va mag'lubiyatlar orqali tobora toblanib boradi.

1501-1504-yillardagi kurashlardan so'ng Bobur Mirzo ota yurtini tark etishga majbur bo'ladi. Hisor tog'lari osha Afg'onistonga yo'l oladi. Aynan sarkardalik mahorati va bu yerda yuzaga kelgan qulay siyosiy vaziyatdan to'g'ri foydalanishi tufayli G'azna va Kobul shaharlarini egallaydi. 1507-yilda esa Hindistonga yurish qiladi. Dastlabki urinishi ko'zlagan natijani bermaydi. 1519-yildan bu o'lkani egallashga jiddiy kirishadi. Bir necha harbiy yurishlari muvaffaqiyatli kechadi. Nihoyat 1526-yilda Panipatda Delhi sultoni Ibrohim Lo'diyning 100 ming kishilik lashkarini 12 ming kishilik qo'shini bilan yengib, bu shaharni qo'lga kiritadi. Shu tariqa jangda g'alaba qozonish uchun askarlar soni emas, harbiy san'at muhimligini isbotlaydi. Atrofidaqilarning sadoqati, mardlik va jasorati ham unga yordam beradi.

So'ng Rano Sangoni mag'lubiyatga uchratib, Shimoliy Hindistonning juda katta qismini egallaydi. Ushbu tajribali sarkarda bilan jang oldidan u otashin nutq so'zlab, butun qo'shinining ruhini ko'taradi. Ushbu muhorabada to'plarni ishlatadi. Shuningdek, "to'lg'ama", ya'ni dusman lashkarining qanotlarini aylanib o'tib, qaqshatqich zarba berish usulini qo'llaydi.

Yovning jangovar fillari tomon Boburning navkarlari yondirilgan g'ildiraklarni dumalatib yuborishadi. Otashdan cho'chigan jonivorlar ortga burilib, yog'iy askarlarini yanchib, qochishga tushishadi. Ana shu g'alabadan so'ng Bobur Hindiston zaminida ulug' saltanat barpo qiladi. Boburiylar bu o'lkada 300 yildan ortiq, ya'ni inglizlar istilosigacha hukmdorlik qilishadi.

Buyuk bobokalonimiz Bobur o'z saltanatida obodonlashtirish, ilmu fanni taraqqiy ettirishga alohida e'tibor qaratadi. Ko'plab bunyodkorlik ishlariga rahnamolik qiladi. Uning davrida dehqonchilik rivoj topadi. Boburning xalqparvarligi yana shunda ko'rinadiki, mahalliy aholining dini, urf-odatlarini hurmat qiladi. Shuning uchun ham buyuk hind xalqining mehru muhabbatini, hurmatini qozonadi.

Mahliyo BAXRIDDINOVA,
Navoiy shahridagi 17-maktab o'quvchisi.

РЎЙХАТГА ОЛИШДА ИШТИРОК ЭТИШ МАЖБУРИЙМИ?

Дунёнинг аксарият мамлакатларида умум-миллий аҳолини рўйхатга олишда иштирок этиш мажбурийдир. Хар бир фуқаронинг аҳолини рўйхатга олишда иштирок этишига бўлган эҳтиёжининг ягона аргументи инсоннинг ўзи ҳақида маълумотга муҳтож бўлган жамиятнинг бир қисми эканлигини англашидир. Аҳолини рўйхатга олиш тўғрисидаги қонунга кўра, аҳолини рўйхатга олишда иштирок этиш "инсон ва фуқаронинг ижтимоий бурчидир".

АҚШ, Буюк Британия, Чехия республикаси каби қатор мамлакатларда рўйхатга олишда иштирок этмаслик қонун ҳужжатларига мувофиқ маъмурий жаримага тортилади. Туркияда аҳолини рўйхатга олиш куни (бир кун) мамлакат аҳолисининг уйдан чиқиб кетиши тақиқланади, шунинг учун улар аҳолини рўйхатга олувчиларни кутишади. Боливия ҳукумати чегараларни ёпиб, шаҳарларда поездлар ҳаракати ва жамоат транспорти ҳаракатини бекор қилади ва аҳолини уйдан чиқмасликка буйруқ беради. Аргентина ва Чилида эса аҳолини рўйхатга олиш куни барча кўнгилочар жойлар, дўконлар, ресторанлар ва хизмат кўрсатиш корхоналарининг эшиклари ёпилади.

Мамлакатимиз тарихида аҳолини рўйхатга олиш жараёнида иштирок этмаслик учун фақат бир марта, яъни 1939 йилда, рўйхатга олишдан бош торгантик учун жиноий жазо чоралари жорий этилган. Кейинчалик қарор бекор қилинган.

2020 йилнинг 16 мартдаги "Аҳолини рўйхатга олиш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси қонунида рўйхатга олинувчилар ўзининг шахсга доир маълумотлари нима мақсадда йиғилаётганлигини, ушбу маълумотлардан ким ва қандай тарзда фойдаланишини билишлари, рўйхатга олувчи ходимлардан тегишли гувоҳномани кўрсатишини талаб қилиш, рад этилган тақдирда эса — рўйхатга олиш варағидаги саволларга жавоб бермасликка, рўйхатга олиш варағининг шаклига биноан шахсга доир ишончли маълумотларни тақдим этиш ҳуқуқига эга. Шунинг билан бирга аҳолини рўйхатга олишни ўтказишга мone-лик қилмаслиги шарт.

Шундан кўриниб турибдики, бугунги кунда мамлакатимизда аҳолини рўйхатга олиш тадбирига иштирок этмаганлик учун жазо чораларини кўриш белгиланмаган.

Файрат ОЙДИНОВ,
Навоий шаҳар статистика
бўлими етакчи мутахассиси.

2023 ЙИЛДА 3,7 ФОИЗ ЎСИШГА ЭРИШИЛДИ

2023 йилнинг январь-декабрь ойларида вилоятда барча тоифадаги хўжаликлар томонидан тирик вазнда 188,3 минг тонна ёки 2022 йилга нисбатан 3,7 фоиз кўп гўшт етиштирилди.

Умумий ишлаб чиқарилган гўшт маҳсулотининг 84 фоизи деҳқон ва томорқа хўжаликлари ҳиссасига тўғри келди.

Мунир МИРЗАЕВ,
Кишлоқ хўжалиги ва экология
статистикаси бўлими бош мутахассиси.

БИР ЙИЛДА 428 ТА КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТИ ИШГА ТУШДИ

Ўтган йили Хатирчи туманида кичик бизнес субъектлари сони 2951 тани ташкил этиб, шундан 2 275 таси фаолият юритмоқда. Шунингдек, 2023 йилда янгидан ташкил этилган кичик бизнес субъектлари сони 428 тани ташкил этади.

Кичик тадбиркорлик субъектларининг 1 275 таси савдо, 507 таси саноат, 414 таси кишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги ҳамда 113 таси қурилиш соҳаларига тўғри келади.

А. ҲУСАНОВ,
Хатирчи туман статистика
бўлими бошлиғи.

МАҲСУЛОТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ 110,4 ФОИЗГА КўПАЙДИ

2023 йилда Хатирчи туманида 631,1 млрд сўмлик истеъмол маҳсулотлари ишлаб чиқарилди. Бу борадаги ўсиш суръати ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 110,4 фоизга тенг бўлди.

Бунда озиқ-овқат маҳсулотлари ҳажми 303,5 млрд, ноозиқ-овқат маҳсулотлари ҳажми 327,6 млрд сўмни ташкил этди.

Азамат ҚУВОНДИҚОВ,
Хатирчи туман статистика
бўлими етакчи мутахассиси.

ҚУРИЛИШ ИШЛАРИ ҲАЖМИ ОРТДИ

2023 йилда, вилоятдаги жами қурилиш ишлари ҳажмида йирик қурилиш ташкилотлари томонидан бажарилган ишлар 1 трлн 407 млрд сўмни ташкил этди.

Йирик қурилиш ишлари 2022 йилга нисбатан 116,9 фоизга кўтарилди. Уларнинг жами қурилиш ишлари ҳажмидаги улуши 20,9 фоизга тенг бўлди.

Н. БОБОНАЗАРОВА,
Статистика бошқармаси бўлим
бошлиғи ўринбосари.

ҚУРИЛИШ КОРХОНАЛАРИНИНГ УЧДАН БИРИ ВИЛОЯТ МАРКАЗИДА

2024 йилнинг 1 январь ҳолатига Навоий вилоятида қурилиш фаолияти билан шуғулланаётган корхона ва ташкилотлар сони 1 390 тани ташкил этди.

Уларнинг 413 таси ёки вилоятдаги жами корхоналарнинг 29,7 фоизи Навоий шаҳрида жойлашган.

Муроджон БАҲРОНОВ,
Инвестиция ва қурилиш статистикаси
бўлими бошлиғи.

ВИЛОЯТГА 2023 ЙИЛДА 10 539 КИШИ КўЧИБ КЕЛГАН

2024 йилнинг 1 январь ҳолатига вилоятимизга кўчиб келганлар сони 10 539 кишини ташкил этди.

Бу ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 1 818 кишига кўпдир.

Дониёр АБДИМУРОДОВ,
Статистика бошқармаси бўлим бошлиғи.

МЕЪМОРЛИК ХИЗМАТЛАРИ РИВОЖЛАНМОҚДА

2023 йилда вилоятимизда меъморлик соҳасидаги хизматлар ҳажми 552,3 млрд сўмга етди ва ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 120,2 фоизни ташкил этди.

Юқори ўсиш суръатлари Зарафшон (122,7 фоиз) ва Навоий (116 фоиз) шаҳарлари ҳамда Қизилтепа (106,5 фоиз) ва Хатирчи (106,3 фоиз) туманларида қайд этилди.

М. МИРЖОНОВ,
Вилоят статистика бошқармаси
бўлим бошлиғи.

КИЧИК БИЗНЕС ВА САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШИ

2023 йилда Нурота туманида кичик бизнес субъектлари томонидан 343,6 млрд сўмлик саноат маҳсулотлари ишлаб чиқарилди.

Бу туманда саноат маҳсулотлари умумий ишлаб чиқаришининг 86,2 фоизини ташкил этди.

Ш. ИСМОИЛОВ,
Нурота туман статистика бўлими бош
мутахассиси.



ДЕҲҚОН ВА ТОМОРҚА ХўЖАЛИКЛАРИ ПЕШҚАДАМ

2023 йилда вилоят бўйича барча тоифадаги хўжаликлар томонидан 335 минг тонна ёки 2022 йилдагига нисбатан 4,6 фоизга кўп сабзавот маҳсулотлари етиштирилди.

Унинг 75,4 фоизи деҳқон ва томорқа хўжаликлари ҳиссасига тўғри келади.

Салоҳиддин ТУЙҒУНОВ,
Статистика бошқармаси бўлим бошлиғи.

ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ КЕНГАЙМОҚДА

2023 йилда вилоятда таълим хизматлари ҳажми 418,2 млрд сўмга етди. Ўтган йилнинг шу даврига нисбатан ўсиш суръати 118,1 фоизни ташкил этди.

Таълим хизматларида юқори ўсиш Навоий шаҳри (119,9 %), Хатирчи (117,3 %), Кармана (116,6 %) ва Қизилтепа туманларида (116,6 %) қайд этилди.

Н. РАҲМАТОВ,
Вилоят статистика бошқармаси
бош мутахассиси.

БИР ЙИЛДА ҚАЙД ЭТИЛГАН ТУҒИЛИШЛАР СОНИ

2024 йилнинг 1 январь ҳолатига вилоятимизда туғилганлар сони 26 805 кишини ташкил этиб, бир йил олдингига нисбатан 531 кишига ошди.

Жумладан, шаҳарда туғилганлар сони 13 814 кишини ташкил этган ҳолда, кишлоқда эса, бу кўрсаткич 12 991 нафарни ташкил этмоқда.

Дониёр АБДИМУРОДОВ,
Демография ва меҳнат Статистикаси
бўлими бошлиғи.

КўРСАТИЛГАН ХИЗМАТЛАР ҲАЖМИ 10 ФОИЗГА ОРТДИ

Вилоятимизда 2023 йилда кичик тадбиркорлик субъектлари томонидан кўрсатилган хизматлар ҳажми 6 570,8 млрд сўмни ташкил этди. Бу кўрсаткич 2022 йилдагига нисбатан 10,2 фоизга ошган.

Бу кўрсаткич 2021 йилда 4 382,7 млрд, 2022 йилда эса, 5 431,7 млрд сўмни ташкил этган.

Нусрат ЗОКИРОВ,
Статистика бошқармаси бўлим
етакчи мутахассиси.

ЯЛПИ ҲУДУДИЙ МАҲСУЛОТ 81 943,2 МЛРД СУМГА ЕТДИ

2023 йилда вилоятда ишлаб чиқарилган ялпи ҳудудий маҳсулот (ЯҲМ) ҳажми 81 943,2 млрд сўмга етди ва 2022 йилга қараганда ўсиш суръати 105,8 фоизга тенг бўлди.

2023 йил январь-декабрь ойларида ЯҲМ дефлятор индекси 112,6 фоизни ташкил этди.

Н. АЧИЛОВ,
Статистика бошқармаси бўлим бошлиғи.

NAVOIY G'AZALLARIDA RUHIY OLAM TASVIRI

Alisher Navoiyning tabiatga qarashi, uning asarlaridagi tabiat tasviri masalalarini o'rganish shoir yuksak mahoratining ayrim qirralarini yoritishga katta imkon yaratadi. Adabiyotshunoslikda Alisher Navoiyning yil fasllariga murojaati, peyzaj yaratish mahorati bilan bog'liq qator tadqiqotlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar shoirning u yoki bu asari, she'riyati misolida bu mavzuga atroflicha munosabat bildirsalar, ba'zilar ushbu masalani kengroq tadqiq qilishga uringanlar.



go'zalliklariga hamdam:
G'unchayu xandon bila
husning guli xurram bahor,
Xatting andoq sabzakim,
bo'lg'ay anga hamdam bahor
(140-b.).

Alisher Navoiy mubolag'a va tashxis san'ati vositasida bahor fasliga oid juda go'zal tasvir yaratgan. Bahor fasli o'zining ajoyib g'aroyibotlari, sayru bazmlari, gulu lola sayllari bilan kishilar ko'ngliga orom bag'ishlaydi. Ana shu sayllarda latofatli, parichehra ma'shuqaning oydek jamoliga ko'zi tushgan elning xayollari to'zg'ib, gulu gulshan sayli ham tatimay, ma'shuqa

Alisher Navoiy "Mukammal asarlar to'plami" - ning 1-6-jildlarida yil fasllari tasviri berilgan g'azal, qit'a, ruboiylar nihoyatda ko'p bo'lib, ularda fasllar manzara yoki she'riy tasvir vositasi hamda inson ruhiy holati kechinmalari sifatida o'z ifodasini topadi. Masalan, bahor butun borliqqa turli-tuman liboslar kiydiradi, dalayu bog'lar qushlarning nag'masoz ohanglariga to'ladi, quyosh kulib, zarrin nurlar sochadi. Dashtu biyobonlar turfa ranglarga chulg'anadi. Nafaqat tabiatda, balki inson zohir va botinida ham uyg'onish, yangilanish, go'zallik, mavjlanish, parishonlik, maftunlik, shaydolik kabi holatlar kuzatiladi:

Bodayu ishqu shabob ayyomi, fasli bahor, Pand netsunkim erur oshuftalig'larning chog'i.

Tabiatdagi hodisalarning barchasidan Alisher Navoiy oshiqning ziddiyatli ruhiy kechinmalarini ochib berishda mahorat bilan foydalangan. Oshiqning ruhiy va jismoniy holati fasllar, ulardagi tabiiy hodisalar bilan uyg'un tarzda o'zgarib boradi. Masalan, Bahor ayyomida yer yuzini ko'zlarni quvontiruvchi qip-qizil lolalar qoplaydi. Oshiq nazdida zaminni yashnatgan lolazor Bahor sharofatidan emas, balki ma'shuqa yuzi hajrida oshiq ko'zlaridan to'kilgan qon yoshlaridan vujudga kelgan:

Yer yuzin tutqan bahor ayyomi ermas lolazor, Kim, yuzing hijronidin giryon ko'zim qon yig'lamish.

Yoki Bahor faslining ajoyibotlari - gulu g'uncha, yam-yashil maysayu sabzalar ma'shuqaning g'unchamonand kichkina og'ziyu, ustki labiga tarovat baxsh etgan mayin tukchalar ila go'zaldir. Ma'shuqa bahordan emas, go'yo Bahor ma'shuqadan nusxa olgan, uning

go'zal yuzi hajrida hatto bahor ham o'z holiga motam tutishini obrazli tarzda ifodalaydi:

Ra'du sayl ermas, fig'onu ashk erur bukim, har el Gul yuzung ko'rgach tutar o'z xolig'a motam bahor (140-b.).

Alisher Navoiy she'riyatida oshiq doimo Haq vaslini izlovchi tolib, ma'shuqa hajrida behisob dardkash qiyofasida namoyon bo'ladi. Hazratning o'zlari "ishq ahlining erur rangi sarig'", deb ta'kidlaganlaridek, dilida hajr va alam, ohi jahonga tushgan o't, ko'z yoshlari ko'klam yomg'iri, rangi esa "xazonlig" bo'ston" kabitdir. Ma'shuqa - uning aksi. U o'zining gulu gulgun chehrasi, zavqu shavqqa to'la sho'xliklarini darig' tutish ila oshiq qalbini tirnaydi. Ana shu holatni shoir go'yo yilning ikki faslini bir mavsumda bo'lishi kabi turfa yangilik, kishini ajablantiradigan va ajoyib hodisa sifatida tasvirlaydi:

Orazim aksi yuzung oyina tushgan turfadur, Kim ko'rubtur ham xazon bir oyda bo'lmoq ham bahor (140-b.).

Umuman olganda, Alisher Navoiyning tabiat olami, bahor fasliga munosabati, muhabbati uning she'riyatida yanada yorqin ko'zga tashlanadi. Uning biror g'azali yo'qki, shoir unga tabiat manzaralarining, fasllar xususiyatlarining, borliqqa inson ta'sirining (yoki aksincha) yangidan-yangi qirralarini ochmagan bo'lsin. Uning barchasida borliq-inson-tabiat zanjiri asosida ulug' shoirning ideal fikrlari, tabiatdan yaralgan insonning yana qaytib unga singishi, qaytishi haqidagi falsafiy-badiiy qarashlari o'z aksini topadi.

Gulchehra BOLTAYEVA, NavDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti.

МАКТАБДА НАВОИЙХОНЛИК ҲАФТАЛИГИ

Навоий шахридаги инглиз ва хитой тилларини чуқурлаштириб ўрганишга ихтисослашган 5-умумтаълим ўрта мактабда Навоийхонлик ҳафталиги ташкил этилди.

Буюк шоир ва давлат арбоби, улуг инсонпарвар аждодимиз таваллудининг 583 йиллиги муносабати билан бўлиб ўтган тадбирлар ўқувчиларнинг Алишер Навоий ҳаёти ва ижоди мазмун-моҳияти ва аҳамиятини қай даражада ўрганаётганлиги, шоирлар султонига ҳурмат-этиборининг ўзига хос синовига айланди.

Айниқса, ҳафталик доирасида ўқитувчи Гулчиroy Бозорова 5 "б" синфда ўтказган Навоийхонлик дарси бу борада муҳим аҳамият касб этди. Машғулот ўқувчиларнинг Алишер Навоий ҳаёти ва ижодига оид билимларни мустақил равишда ҳам кенг ва чуқур ўрганаётганлигининг

ёрқин намоишига айланди.

Шунингдек, мактаб кутубхонасида уюштирилган ғазалхонлик соати барчага манзур бўлди. Унда, Сабина Пўлатова, Нилуфар Толипова, Гул-асал Холбўтаева, Рўзимурод Орзиев, хуснора Сатторова сингари ўқувчилар фаол иштирок этишди. Шоирнинг маҳорат билан ўқилган шеър, рубоий ва ғазаллари, улар асосида яратилган куй-қўшиқлар ижроси қатнашчиларга катта маънавий-маърифий завқ-шавқ ва энг эзгу инсоний туйғуларни улашди.

Олим ХЎЖАЕВ.

Мамлақтимизда ёш авлод тарбиясига алоҳида эътибор қаратилган. Бунда фарзандларимизнинг билимли, комил инсонлар бўлиб вояга етиши учун "Устоз-шогирд" анъаналарининг давомийлигини таъминлаш ғояси устувор аҳамият касб этади. Жамиятнинг ривожланиши ва инсон камолотида устозларнинг ўрни беқиёс. Доно халқимиз "Устоз кўрган", "Устоз кўрмаган шогирд ҳар мақомга йўргалар", "Таълим берган устозингга раҳмат", "Устоз отангдек улуг" деб бежиз айтмаган.

МАЛАКАЛИ КАДРЛАР ЗАҲИРАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

"Устоз-шогирд" анъаналари давомийлигининг муҳим омили

Ота-оналар улғаяётган фарзандларининг комил инсонлар бўлиб етишишини, келгусида бирор касб-хунарнинг эгаси бўлиб, фаровон турмуш кечиришини истайди. Шу мақсад йўлида ўтмишда фарзандларини устозга топшира туриб, "Эти сизники, суяги бизники" сўзларини бот-бот такрорлашган. Зеро, устоз кўрган шогирднинг келажаги порлоқ бўлиши шубҳасиз. Инсон ўзини англаган даврдан устозларга суянган, улардан маънавий қудрат олган. Агар иқтидорли устоз ўз мактабини яратмаса, ўзидан кейин билимдон, истеъдодли шогирдлар қолдирмаса, унинг эришган ютуқлари сувга тушган тошдаёқ изси йўқолиши аниқ. Буюк бобокалонимиз ҳазрат Алишер Навоий ҳам "Хунарни асрабон неткумдир охир, олиб тупроққа му кетгумдир охир" деган мисраларни бежиз битмаган.

Маълумки, халқ таълими тизимида ишлаётган педагог кадрларнинг лавозим мажбуриятлари, уларнинг касбий тайёрланганлигига қўйиладиган услубий малака талаблари асосида таълим муассасаларида "Устоз-шогирд" усулида узлуксиз малака ошириш тизими ишлаб чиқилган. Бу тизимни ташкил этиш тартибига кўра, ҳар бир фан бўйича танлаб олинган устозлар олий маълумотли ва камида ўн йиллик педагогик стажга, фани йўналишида илгор тажрибага эга, ижодкор, ташаббускор, янгилликка интилувчан, камида икки марта малака оширишдан ўтган, олий ёки биринчи тоифали ўқитувчи бўлиши зарур.

Фанлар кесимида мактаблардан энг илгор, ўз фанини чуқур эгаллаган, тажрибали устоз ўқитувчилар аниқланади. Ёш, иқтидорли, изланувчан, фидойи 3 нафар шогирд ўқитувчиларнинг бир нафари ўз таълим масканидан, қолган икки нафари яқин ҳудуддаги мактаблардан танланиб, шаҳар халқ таълими бўйруғи билан устозга бириктирилади. Узлуксиз малака ошириш жараёни ҳар бир шогирднинг устоз раҳбарлигида мустақил билим олиш бўйича индивидуал режасини шакллантиришдан бошланади. Ўзаро дарс кузатиш ва таҳлил қилиш фан ўқитувчиларининг методик кунларида ташкил этилади. Бунинг учун таълим муассасаси маъмурияти томонидан методик кунларда бир соатдан "Устоз-шогирд" дарсларини ўтказиш учун дарс жадвали мувофиқлаштирилади.

Ҳозирги пайтда мен фаолият олиб бораётган Навоий шахридаги 11-сонли умумтаълим масканида ҳам "Устоз-шогирд" анъанавий тизими яхши йўлга қўйилган. Ўзим ҳам таълим тарбия ишларини олиб бориш билан бирга, шогирдларим билан таълим сифати ҳамда самарадорлигини ошириш мақсадида бир қатор илмий услубий тавсиялар яратиб, инновацион ғоялар устида ишлаб келмоқдаман. Натижада, "Устоз-шогирд" тизими бошқарув кўникмаларини ва тажрибани ривожлантириш, ёш ўқитувчининг шахсий фазилятларини шакллантириш, амалий кўникмаларга эга бўлиш услубини такомиллаштиришга эришяпмиз.

Биз олдимизга қандай вазифа ва мақсад қўймайлик, охир-оқибатда барибир кадрлар масаласига бориб тақалаверади. Айтиш мумкинки, бизнинг келажагимиз, мамлақатимиз келажаги ўрни-мизга ким келишига ёки, бошқачароқ айтганда, қандай кадрлар етиштиришимизга боғлиқ. Дарҳақиқат, ҳар бир машғулот мазмунининг кенглиги ва чуқурлиги, давлат талабларига мувофиқлиги, шогирдларнинг таълим технологиялари ва методиканинг тўғри усулини танлаши ҳамда ундан унумли фойдаланишни талаб этади.

Устоз шогирдига энг аввало, ҳаётда ва фаолиятда рақобатга киришиши ҳамда ўзини рўёбга чиқариши учун энг муҳим жиҳат бу - бошқа одамлар билан самарали, ўзаро таъсирчан муносабатга кира олиш қобилияти эканлигини кўрсата олиши лозим. Шогирд ҳар қандай рақобат ҳолатида тўғри йўл топа олиш кўникмаларини ва натижаларини тўғри аниқлай олиши, ҳар бир ўқувчидан ранг-баранг шахсий хусусиятлар ва қобилиятларни талаб қилишни ўзлаштириши муҳим. Демак, рақобат усули шогирдни ҳар томонлама тайёр кадр бўлиб етишишида муҳим омили саналади.

Хулоса ўрнида айтадиган бўлсак, янги Ўзбекистоннинг бугунги кунда бўлажак мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлаш борасида ҳали амалга ошириладиган ишлар миқёси катта. "Устоз-шогирд" анъанаси азал-азалдан нодир қадрият сифатида мамлакатни юксалтиришда алоҳида ўринга эга бўлган ноёб анъанадир.

Унга содиқ қолган ҳолда, етук ва малакали кадрлар заҳирасини шакллантириш олдимизда турган энг асосий вазифаларимиздан биридир.

Саёҳат ҚИЛИЧЕВА,

Навоий шахридаги 11-умумтаълим мактаби ўқитувчиси.

 NAVOIY ZIYOSI MUASSIS: NAVOIY SHAHAR HOKIMLIGI	Bosh muharrir: SANOQULOV Orol Aliqulovich Gazeta Navoiy viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2017-yil 4-avgustda 07-047 raqami bilan ro'yxatga olingan	Navbatchi muharrir: Olim XO'JAYEV E-mail: navoiy-ziyosi@umail.uz Gazeta tahririyatning kompyuter markazida Odiljon NORTOJIYEV tomonidan sahifalandi.	Manzilimiz: 210100, Navoiy shahri, Amir Temur ko'chasi, 4-uy. Gazeta teleg: - 93-522-40-10 Reklama bo'limi - 93-461-30-78 Yagona obuna indeksi - 4508 Qog'oz bichimi A-3, hajmi 2 bosma taboq. Buyurtma ____	Chop etildi: 12.02.2024-yil Topshirildi: 9 ⁰⁰ Chop etish vaqti: 9 ³⁰ Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazeta o'zbek va rus tillarida har oyda ikki marta chop etiladi.	Gazeta "Do'stlik bayrog'i" va "Znamya drujbi" gazetalari tahririyati DUKning matbaa bo'limida ofset usulida bosildi. Bosmaxona manzili: Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi, 36-uy. Bahosi erkin naxda. ISSN Adadi - 500 2181-5690
--	---	--	---	---	--